

Qarshi davlat universiteti jamoatchilik "Antikorrupsiya monitoring guruhi" to'g'risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qarshi davlat universitetining jamoatchilik "Antikorrupsiya monitoring guruhi" ning Nizomi (keyingi o'rinlarda Nizom) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 25-iyuldagi kengaytirilgan videoselektor yig'ilishining №64-son bayoni ijrosini ta'minlash yuzasidan topshiriqlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" o'z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi universitetning jamoatchilik guruhi deb hisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik "Antikorrupsiya monitoring guruhi" ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasida korrupsiyaviy omillarning bartaraf etishda keng qamrovli tahlili (monitoring)ni va hisobotini amalga oshiradi.

4. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" yuridik shaxs hisoblanmaydi.

5. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" tahlil (monitoring) va hisobotlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" Qarshi davlat universiteti rektorining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

7. Nizom va unga kiritiladigan o'zgartishlar hamda qo'shimchalar universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

8. Ta'lim jarayonida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish orqali professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit sog'lomligini ta'minlash, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar orqali universitet faoliyatini rivojlantirish, professor-o'qituvchilar o'rtasidagi sog'lom raqobatni rivojlantirish, jamoatchilik asosida amalga oshiriladigan nazorat orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etilishi oldini olish hamda Universitetda ochiqlik va shaffoflik talablariga to'liq rioya etish Antikorrupsiya monitoring guruhi"ning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

9. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" tarkibiga universitet talabalari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarning vakillari kirishi mumkin.

2-bob. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" ning asosiy vazifalari va huquqlari

10. Quyidagilar "Antikorrupsiya monitoring guruhi"ning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Qarshi davlat universitetining "Antikorrupsiya monitoring guruhi" (keyingi o'rinlarda Guruh) faoliyatining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiya xavflarini oldini olish, axloqiylik va halollikni ta'minlashda yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, oliy va professional ta'lim muassasalari talabalari va professor-o'qituvchilari o'rtasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha oldini olib samaradorligini oshirishda yordam berishdan iborat. Shuningdek, ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

- talabalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

- universitetdagi ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va universitet rektori bilan ochiq muhokamalarni o'tkazish.

11. Guruh o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida:

- a) ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatishda:

12. Guruhning maqsad va vazifalari

Guruhning asosiy maqsadi – Qarshi Davlat Universitetida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, ularga barham berish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolik nazoratini amalga oshirishdan iborat.

Guruh quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Universitetda korrupsiyaga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash;

- Jamoatchilik asosida universitet faoliyatining ochiqligini monitoring qilish;

- Korrupsiyaviy xavf bo'lgan sohalar (qabul, attestatsiya, ta'lim jarayoni, grantlar, kontrakt, imtihonlar va boshqalar)da tahlil olib borish;

- Talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

- Tashkilot va fakultetlar bilan hamkorlikda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- Korrupsiyaga oid shubhali holatlar yuzasidan tegishli idoralarga ma'lumot berish;

- "Ishonch qutilari", elektron murojaatlar orqali kelib tushgan shikoyatlarni o'rganish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha seminar, davra suhbatlari, treninglar tashkil etish.

12. Guruhning huquqlari

Guruh quyidagi huquqlarga ega:

- Universitet rektoriga murojaat kiritish ga;

- Korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan mustaqil monitoring o'tkazish;
- Talabalar va xodimlardan og'zaki va yozma murojaatlarni qabul qilish;
- Tegishli davlat organlariga ariza yoki axborot yuborish;
- Universitet hududida axborot tadbirlarini o'tkazish;
- Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar qilish;
- Talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, Mahalla qo'mitasi, Xotin-qizlar kengashi bilan hamkorlikda ish olib borish.

3-bob. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" ning tarkibi va a'zoli

13. Guruh quyidagi tartibda shakllantiriladi:

- Guruh a'zolari universitetda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, ishchi xodimlar, talabalar va jamoatchilik faollaridan ixtiyoriylik asosida shakllantiriladi;
- A'zolar universitet jamoatchiligi tomonidan ochiq muhokama asosida yoki rektor buyrug'i bilan tasdiqlanishi mumkin;
- A'zolar orasida korrupsiyadan holi, intellektual, faol va halol insonlar bo'lishi lozim;
- Guruh tarkibi kamida 6 nafardan iborat bo'lishi va tarkibida kamida 2 nafar talabalar bo'lishi tavsiya etiladi.

4-bob. "Antikorrupsiya monitoring guruhi" ning boshqaruvi va faoliyatining ochiqligi

14. Guruhning boshqaruvi

- Guruhga Rais rahbarlik qiladi. Rais quyidagi tartibda saylanadi:
- Guruh a'zolari tomonidan ochiq ovoz berish orqali saylanadi;
- Rais o'z vakolatlari doirasida guruh ishlarini muvofiqlashtiradi va rahbariyat bilan aloqada bo'ladi.
- Guruh yig'ilishlari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Zarurat bo'lsa, navbatdan tashqari yig'ilish o'tkazilishi mumkin.
- Yig'ilishlarda guruh faoliyati tahlil qilinadi, yangilangan takliflar ishlab chiqiladi, hisobotlar tinglanadi.

15. Hisobotlilik va faoliyatning ochiqligi

- Guruh o'z faoliyati bo'yicha universitet jamoatchiligiga har chorakda bir marotaba yoki har semestr oxirida ochiq hisobot beradi.
- Hisobotlarda quyidagilar ko'rsatiladi:
- Monitoring natijalari;
- Olingan murojaatlar va ularning ko'rib chiqilishi;
- Tavsiya va takliflar;
- Qabul qilingan choralar.
- Hisobotlar universitet saytida, axborot stendlarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

16. Guruh faoliyatini muvofiqlashtirishda universitet rektorati va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi (agar mavjud bo'lsa) bilan hamkorlik qilinadi.

- Ushbu Nizom universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

- Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Guruh a'zolarining umumiy yig'ilishi yoki rektor qarori bilan kiritilishi mumkin.

17. Qo'shimcha tavsiyalar:

- Guruh faoliyatini yuritishda ichki etik kodeks ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

- Guruh faoliyatini muvofiqlashtirish uchun universitetda alohida elektron pochta, Telegram bot yoki web-platforma ochilishi foydali bo'ladi.

- Har yili "Korrupsiyaga qarshi kurashish haftaligi" doirasida maxsus tadbirlar o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Qarshi davlat universiteti rektorining
15 sentabr 2025 -yildagi
208I-sonli buyrug'iga 2-ilova

**Qarshi davlat universitetidagi “Antikorrupsiya monitoring guruhi” ning
TARKIBI**

No	Kengash a'zosining F.I.Sh.	Lavozimi
	Raupov Ruyiddin	Qashqadaryo viloyati Adolat SDP Kengashi raisi, guruh raisi
	Amrillayev Hikmatillo Ahadullo o'g'li	O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qashqadaryo viloyat Kengashi Matbuot xizmati bo'lim boshlig'i, <i>a'zosi</i>
	Mustafayev Temur Numonovich	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Qashqadaryo viloyati yoshlar ishlari boshqarmasida bosh mutaxassisi, <i>a'zosi</i>
	Axmedov Shuxrat Achilovich	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens- nazorat” tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi, <i>a'zosi</i>
	Norboboyev Navruzбек Nurbek o'g'li	Fizika fakulteti Energetika muhandislik yunalishi 2-kurs talabasi, <i>a'zosi</i>
	Muratov A'zam Alisher o'g'li	Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti, <i>kotibi</i>